



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2020- yil yanvar

RAQAMLAR:


- 2020- yil yanvar oyida bozor xizmatlari hajmi 230,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 162,3 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 275,5 ming so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushini oshishiga olib keladi.


2020- yil yanvar oyida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 230,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,9 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar (29,2%) tashkil etadi.

2020- yil yanvar oyida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)



2020- yil yanvar oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning yanvar oyida oldingi yilning yanvar oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlar (29,8 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (9,0 mlrd. so'mga) va transport xizmatlari (4,1 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2020- yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar–jami	230,9	116,9
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	14,1	114,9
Moliyaviy xizmatlar	67,4	162,3
Transport xizmatlari	35,7	102,0
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	33,6	101,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	4,7	102,8
Savdo xizmatlari	62,5	101,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	5,7	101,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	7,9	107,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	3,9	124,1
Ijara xizmatlari	5,7	130,8
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	6,4	110,7
Shaxsiy xizmatlar	5,4	102,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	4,1	101,7
Boshqa xizmatlar	7,4	97,2

**2020- yil yanvar oyida tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati	230,9	116,9
<i>shaharlar:</i>		
Guliston sh.	133,3	130,2
Shirin sh.	2,8	104,8
Yangiyer sh.	16,3	104,7
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	9,2	118,7
Guliston	6,8	104,5
Mirzaobod	10,6	105,4
Oqoltin	4,9	104,8
Sardoba	6,0	112,4
Sayxunobod	6,3	67,6
Sirdaryo	26,3	104,1
Xovos	8,4	105,0


Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2020- yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2020- yil yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (162,3 %), Ijara xizmatlari (130,8 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (124,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (114,9 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2020- yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Viloyatda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2020- yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi 62,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 27,0 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 9,0 mlrd. so'mga oshdi.

2020- yil yanvar oyida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 75,1 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 19,1 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,8 % ni egalladi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2020- yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 67,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 162,3 % ni tashkil etdi.


2020- yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (97,0 %) katta salmoqqa egadir.

2020- yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 4,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 102,8 % ni tashkil etdi.

2020- yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi, %




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 93,4 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 6,6 % ga to'g'ri keldi.

Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar avvalambor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatni yuksaltirishga yordam bermoqda.

2020- yilning yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 7,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 3,4 % ni tashkil etdi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar oyi bilan taqqoslanganda ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi 2,1 mlrd. so'mga oshdi.

Sirdaryo viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining doimiy o'sishi kuzatilmoqda. 2020- yil yanvar oyida 275,5 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 61,9 ming so'mga oshdi va o'sish sur'ati 114,8 % qayd etildi.

**2020- yil yanvar oyida viloyat bo'yicha
aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm**




Tuman va shaharlar o'rtasida Guliston shahri (1484,4 ming so'm) bilan yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Guliston shahri bo'yicha 128,6 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Boyovut (71,4 ming so'm), Sayxunobod (82,5 ming so'm) va Xovos (88,6 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

2019- yil yanvar oyiga nisbatan, 2020- yil yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahrida (128,6 %), Boyovut (116,5 %) va Sardoba (110,5 %) tumanlarida qayd etildi.

2020- yil yanvar oyida tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel: (71) 230-86-31